NEOLINE

# X-COP 7800s Wi-Fi Black

SIGNATURALI RADAR-DETEKTOR
EXD 2.5 SIGNAL KUCHAYTIRGICHI BILAN




Wi Fi
HOTSPOT

Foydalanuvchi uchun qo‘llanma

# Neoline X-COP 7800s Black
# TEXNOLOGIYALARI

**WI-FI HOTSPOT YANGILASH**

Neoline kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan noyob texnologiya bo'lib, Wi-Fi va smartfondagi «Kirish nuqtasi» (Hotspot) yordamida qurilmaning dasturiy ta'minoti va GPS bazasini yangilash imkonini beradi. Ushbu texnologiyaning asosiy xususiyati — qurilmani yangilash uchun maxsus ilova talab etilmasligi, bu esa foydalanuvchi uchun yangilash jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

**LNA EXD 2.5 MODULI (Signal kuchaytirgichlar kaskadi)**

Radar-detektorga ilg'or, takomillashtirilgan **LNA EXD 2.5** signal kuchaytirgichi integratsiya qilingan.
Barcha kam quvvatli radarlarning kuchsiz signallarini sezilarli darajada kuchaytiradi. Ayniqsa, «orqadan» detektorlashda maksimal darajada foydali. Neoline kompaniyasining eng so'nggi ishlanmasi!

**KATTA RUPOR + MAXSUS LINZA**

Katta ruporli antenna oldiga kattalashtirilgan maxsus linza o'rnatilgan bo'lib, ko'proq signalni «yig'ish» imkonini beradi.
LNA EXD 2.5 + Katta rupor + Maxsus linza kombinatsiyasi barcha politsiya radarlarini aniqlash masofasini sezilarli darajada oshirish uchun ideal uyg'unlik hisoblanadi.

**SIGNATURA**

Har bir impulsli politsiya radari o'ziga xos signal turiga ega bo'lib, «Signatura» deb ataladi. Radar-detektor signaturalari kutubxonasiga O'zbekiston hududida va qo'shni davlatlarda uchrashi mumkin bo'lgan barcha politsiya radarlari kiritilgan.
«Signaturali», «Trassa» va «X-COP» rejimlarida politsiya radarining turi uning signaturasi bo'yicha aniqlanadi. Shu bilan birga, barcha boshqa signallar (jumladan, yolg'on signallar) bloklanadi. Signaturalar kutubxonasi radar-detektor dasturiy ta'minotining bir qismi bo'lib, zaruratga ko'ra yangilanib boriladi. Yangi proshivkalar https://uz.neoline.com saytining «Yangilanishlar» bo'limida mavjud.

**Z-SIGNATURALAR FILTRI**

Neoline kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan noyob texnologiya bo'lib, boshqa avtomobillarning ko'r zonalar datchiklari, trafik datchiklari, surilma eshiklar va shlagbaumlar datchiklari, uyali aloqa tarmoqlarining bazaviy stansiyalari va boshqa turli xalaqit manbalaridan kelib chiqadigan yolg'on ishga tushishlarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan

**MULTARADAR MODULI**
Radar-detektor aniqlash qiyin bo'lgan MultaRadar CD va CT komplekslarini detektirlaydi. Ushbu turdagi radarlar O'zbekiston, Rossiya va Yevropada keng tarqalgan. Bu radarlar signalining o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgani sababli, ularni aniqlash uchun maxsus platforma talab etiladi.

O'zbekistonda 2024 yil holatiga ko'ra, Chevrolet avtomobillariga (Nexia 3, Cobalt va boshqalar) o'rnatilgan «MultaRadar CD moving» mavjud.

**O'ZBEKISTON RADARLARI VA KAMERALARINING GPS BAZASI**

Qurilmaga sun'iy yo'ldoshlarga tezkor ulanishni ta'minlovchi ilg'or GPS/GLONASS moduli o'rnatilgan. Neoline'dan noyob radarlar va kameralar GPS bazasi butun O'zbekiston hamda boshqa mamlakatlar (RF, MDH, Yevropa va boshqalar) bo'yicha maksimal darajada aniq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

## Ulagichlar va tugmalar tavsifi




## O‘rnatish usuli

1. Old oyna uchun so‘rg‘ichli mahkamlash moslamasini oling yoki so‘rg‘ichlarni 3M skotchli platformaga almashtiring.
2. Mahkamlash moslamasining bo‘sh uchini qurilma korpusidagi mahkamlash ulagichiga kiriting.
3. Radar-detektorni o‘rnatish uchun mo‘ljallangan old oyna qismini yog‘sizlantiring.
4. Qurilmani yog‘sizlantirilgan old oyna qismiga mahkamlang.
5. Politsiya radarlaridan kelayotgan signallarni qabul qilishga xalaqit bermasligi uchun radar-detektor gorizontal holatda mahkamlanishi kerak.
6. Quvvat kabelini avtomobil rozetkasiga va DC 12–24 V quvvat ulagichiga ulang.

## Boshqaruv elementlari va funksiyalari

**«Yuqoriga / Pastga» tugmalari**

- **Ovoz balandligini sozlash**
- **Menyu ichida funksiya parametrlari o‘rtasida almashish**
- **Xavfli hududni qo‘shish yoki o‘chirish (sun’iy yo‘ldoshlarga ulanish talab etiladi)**

**Xavfli hudud** – bu sizning alohida e’tiboringizni talab qiladigan joy. Masalan, ketma-ket yotqizilgan tezlik pasaytirgichlar, maktab, tirband chorraha, mobil post va boshqalar.
«Yuqoriga» tugmasini 1,5 soniya bosib turing — Xavfli zona qo‘shiladi. Qo‘shilgandan so‘ng «Xavfli zona qo‘shildi» degan ovozli xabarnoma eshitiladi.
Menyuda Xavfli zona ta’sir radiusini sozlash mumkin — «OZ RADIUSI» funksiyasi.
Xavfli zonani o‘chirish uchun, Xavfli zona ichida bo‘lganingizda «Yuqoriga» tugmasini 1,5 soniya bosib turing.

- **Sukut zonasini qo‘shish yoki o‘chirish** (sun’iy yo‘ldoshlarga ulanish talab etiladi)

**Sukut zonasi** — yolg‘on signallar aniqlanadigan hudud (politsiya radari mavjud emas). Bunday zonalar ko‘pincha yoqilg‘i quyish shoxobchalari va avtomatik eshikli do‘konlar yaqinida uchraydi.

Yolg‘on signal qabul qilinayotgan paytda «Pastga» tugmasini 1,5 soniya bosib turing — Sukut zonasi qo‘shiladi. Qo‘shilgandan so‘ng “Sukut zonasi qo‘shildi” degan ovozli xabarnoma eshitiladi. Menyuda Sukut zonasi ta’sir radiusini sozlash mumkin — **«ZT RADIUSI»** funksiyasi.

Sukut zonasini o‘chirish uchun, Sukut zonasi ichida bo‘lganingizda «Pastga» tugmasini 1,5 soniya bosib turing.

**«Yuqoriga / Pastga» tugmalari**

- **Menyuga o‘tish**
  Signal aniqlanayotgan yoki GPS nuqta topilgan paytda — 1,5 soniya davomida bosib turing, boshqa hollarda esa qisqa bosish kifoya.
- **Menyu ichida funksiyalar o‘rtasida almashish**
- **Sozlamalarni saqlagan holda menyudan chiqish**
  1,5 soniya bosib turing
- **Qurilmani o‘chirish**
- **Ovozni o‘chirish**
  Radar yoki kamera aniqlanganda, qisqa bosish ovozli ogohlantirishni o‘chiradi.

**«Rejim» tugmasi**

**Menyuda funksiyalar o‘rtasida teskari tartibda almashish**

**Detektorlash rejimlari o‘rtasida almashish: «Signaturali», «Trassa»,«X-COP»**



**Signaturali** – politsiya radarlarini signatura bo‘yicha aniqlash yoqilgan (ushbu qo‘llanmaning 1-betiga qarang). Ushbu rejimni asosiy rejim sifatida foydalanishni tavsiya etamiz.
**«Signatura»** yoqilgan



**Trassa** — «LOCHIN KO‘Z» radarining barcha signaturalari yoqilgan. Ushbu rejimdanfaqa aholi punktlaridan tashqarida foydalanishni tavsiya etamiz. «LOCHIN» signaturasida DMZ sababli yolg‘on ishga tushishlar paydo bo‘lishi mumkin
**«Signatura» va «Z-signatura filtri» yoqilgan**




**X-COP** – avtomobil tezligiga qarab «Signaturali» / «Trassa» rejimlari o‘rtasida avtomatik almashish.

| Harakat | Tezlik | Rejim | Ogohlantirish |
|---|---|---|---|
| **Tirbandlikda** | **0-24 km/soat** | Signaturali | **Ovozsiz, Faqat displey** |
| **Aholi punktlarida** | **25-74 km/soat** | Signaturali | **Ovozli ogohlantirishlar + displey** |
| **Magistrallar va avtobanlar bo‘ylab** | **75 + km/soat** | Trassa | **Ovozli ogohlantirishlar + displey** |

## Displeydagi ma’lumotlar

- **Standart rejimda**



▶ **Politsiya radari signali aniqlanayotgan paytda:**




▶ **GPS nuqtasi aniqlanganda**




## Detektorlash vaqtida ovozli ma'lumot

- **Ruxsat etilgan tezlik haqida ovozli xabarnoma: politsiya radarining nomi, YHQ nazorati va ruxsat etilgan tezlik e'lon qilinadi (masalan: «Avtokon, orqadan, 80»)**
- **Politsiya radarlaridan kelayotgan signallar aniqlanganda ovozning bosqichma-bosqich kuchayib borishi bilan beriladigan tovushli signal**
- **Ruxsat etilgan tezlik oshirilganda tovushli signal**
- **GPS nuqtasidan o'tilgandan so'ng tovushli signal**

## Signatura bo'yicha aniqlanadigan radar turlari

| Politsiya radarining turi | Displeyda radar nomi | Displeyda radar qisqa nomi |
|---|---|---|
| Multa Radar CD Moving | МУЛЬТА | МР |
| МКордон М2 | КОРДОН | КД |
| Кордон PRO | | КН |
| Кордон BLACK | | |
| Автокон | АВТОКОН | АК |
| Скат | СКАТ | СК |
| Lochin ko'z | LOCHIN | LN |
| Hikvision | HIKVISION | HV |
| Kaskad/Megacam | КАСКАД | КС |

**ESLATMA**: ayrim radarlarning signaturalari boshqa radarlar signaturalari bilan bir xil yoki juda o'xshash bo'lishi mumkin. Shu sababli ular yuqoridagi jadvalda guruhlarga birlashtirilgan. Bunday guruhlar uchun yagona ogohlantirish va displeyda yagona ma'lumot ko'rsatish joriy etilgan.

## Kafolat muddati

Ishlab chiqaruvchi Mahsulotga sotilgan kundan boshlab 24 oy kafolat muddati belgilaydi, iroq Mahsulot savdo tashkilotiga topshirilgan kundan boshlab 27 oydan oshmasligi shart. Qaysi muddat avvalroq tugasa, o'sha muddat amal qiladi.
Mahsulot sotilgan sanani aniqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, kafolat muddati mahsulot ishlab chiqarilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi mahsulot uchun xizmat muddatini 24 oy etib belgilaydi. Xizmat muddati mahsulot ishlab chiqarilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

Ishlab chiqarilgan sana seriya raqamida ko'rsatilgan. Ishlab chiqarilgan oy va yil «K» harfidan oldingi 4 ta belgida ifodalanadi. Masalan: XCOP78sB0224K1234. X-COP 7800s Wi-Fi Black radar-detektori 2024 yil fevral oyida ishlab chiqarilgan. Yoki ishlab chiqarilgan sana ochiq ko'rinishda ham ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Kafolat muddati davomida ishlab chiqaruvchi nuqson ishlab chiqaruvchi aybi bilan yuzaga kelgan bo'lsa, mahsulotdagi kamchiliklarni uni ta'mirlash yoki xuddi shunday mahsulotga almashtirish orqali bepul bartaraf etish majburiyatini oladi.

## Kafolat shartlari

1. Ushbu kafolat quyidagi shartlarga rioya qilinganda amal qiladi: kafolat talonini to'g'ri va aniq to'ldirish, bunda kafolat taloni va ajratma kuponlarda model nomi, seriya raqami, sotilgan sana hamda sotuvchi tashkilot muhrining ko'rsatilgan bo'lishi shart.
2. Kafolat vaqti-vaqti bilan texnik xizmat ko'rsatishni, dasturiy ta'minotni o'rnatishni a mahsulotni sozlashni o'z ichiga olmaydi.
3. Quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelgan nuqsonlarga ega mahsulotlar kafolatli ta'mirlashga qabul qilinmaydi:
   - mexanik shikastlanishlar;
   - ekspluatatsiya shartlariga rioya qilinmasligi yoki foydalanuvchining noto'g'ri harakatlari;
   - saqlash va tashish qoidalarini iste'molchi tomonidan buzilishi;
   - tabiiy ofatlar (chaqmoq, yong'in, suv toshqini), shuningdek sotuvchi a ishlab chiqaruvchi nazoratidan tashqaridagi boshqa sabablar, jumladan elektr tarmog'idagi kuchlanish sakrashlari;
   - qurilma ichiga begona buyumlar, suyuqliklar yoki hasharotlar kirib qolishi;
   - akolatsiz shaxslar tomonidan ta'mirlash yoki konstruktiv hamda sxematik o'zgartirishlar kiritilishi;
   - quvvat, telekommunikatsiya va kabel tarmoqlarining Davlat texnik standartlaridan chetga chiqishi:
4. Quyidagi hollarda kafolatli xizmat ko'rsatish huquqi yo'qotiladi:
   - agar nosozlik buyum tarkibiga kirmaydigan uskuna yoki dasturiy ta'minot bilan birgalikda ishlatilishi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa;
   - agar nosozlik buyum tarkibiga kirmaydigan uskuna yoki dasturiy ta'minot bilan birgalikda ishlatilishi, shuningdek qurilmani mustaqil ravishda proshivka qilish yoki, dasturiy ta'minotni mustaqil yangilash natijasida yuzaga kelgan bo'lsa va bu qurilmaning ishlashida nosozlik yoki xatolarga olib kelgan bo'lsa
   - agar qurilma nuqsonlari kompyuter viruslari sababli yuzaga kelgan bo'lsa;
   - agar nuqsonlar qurilma nosoz uskunalar majmuasi tarkibida ishlatilishi oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa;
5. Qurilmani sigaret yoqgichga ulash uchun mo'ljallangan quvvat simini kesish va uni avtomobilning bort tarmog'iga to'g'ridan-to'g'ri ulash taqiqlanadi. Bu holat kafolatli xizmat ko'rsatishdan voz kechilishiga olib keladi.
6. Tovarga kafolatli xizmat ko'rsatish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:
   - mahsulot sotib olingan mamlakat qonunchiligi qoidalariga muvofiq;
   - mahsulot sotib olingan mamlakatdagi savdo / vakolatli tashkilotlar va servis markazlari tomonidan.
7. Ushbu kafolat amaldagi qonunchilikka muvofiq iste'molchiga berilgan qonuniy huquqlarni cheklamaydi.
8. Ishlab chiqaruvchi o'rnatish, sozlash, foydalanish jarayonidagi noto'g'ri harakatlar, shuningdek uskunaning ishdan chiqishi yoki ishlamasligi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan har qanday zararlar uchun javobgar bo'lmaydi.

## Yo‘l harakati qoidalarini nazorat qiluvchi kameralar turlari

| YHQ nazorati turi | Displeydagi ogohlantirish |
|---|---|
| Avtobus yo‘lagini nazorat qilish | OT yo‘lagi |
| Svetofor yoki chorrahadan o‘tishni nazorat qilish | Chorraha |
| Piyodalar o‘tish joyidan o‘tishni nazorat qilish | Piyodalar o‘tish joyi |
| Yo‘l chetidan harakatlanishni nazorat qilish | Yo‘l cheti |
| Tezlikni «orqadan» nazorat qilish | Orqadan |
| Yo‘l chizig‘iga chiqishni nazorat qilish | Yo‘l chizig‘i |

Ovozli e’lon namunasi: Kordon, orqadan, 60.

## Menyudagi funktsiyalar

**Wi-Fi yangilanishi**
Wi-Fi yordamida dasturiy ta’minot va GPS bazasini eng so‘nggi versiyalargacha yangilash jarayonini faollashtirish

**ESLATMA**: birinchi yangilashdan oldin qurilma menyusidagi «Wi-Fi login» va «Wi-Fi parol» funksiyalariga o‘ting va smartfoningiz sozlamalariga mos qiymatlarni kiriting. Batafsil ma’lumot uchun ushbu qurilma to‘plamiga kiritilgan Wi-Fi HOTSPOT yangilash bo‘yicha yo‘riqnomaga qarang.

**Wi-Fi kirish**
Ushbu menyu funksiyasiga smartfoningizdagi «Kirish nuqtasi» (Hotspot) (Android) yoki «Qurilma nomi» (iOS) nomiga mos nomni kiriting.

**ESLATMA**: qiymat uzunligi 8 ta belgi bilan cheklangan.

**Wi-Fi paroli**
Ushbu menyu funksiyasiga smartfoningizdagi «Kirish nuqtasi» (Hotspot) (Android) yoki «Modem rejimi» (iOS) uchun o‘rnatilgan parolga mos parolni kiriting.

**ESLATMA**: qiymat uzunligi 8 ta belgi bilan cheklangan.

**Yoritish**
Displey yorqinligini o‘zgartirish. Qorong‘i yoritish tanlanganda, ekran «x-cop» yozuvi bilan qorong‘i holatda bo‘ladi. Ekrandagi ma’lumotlar faqat signal aniqlanganda yoki GPS orqali kameralar topilganda paydo bo‘ladi.

**Ovoz**
Politsiya radarlar va kameralar haqidagi ovozli ogohlantirishni yoqish yoki o‘chirish.

**Avtomatik pasaytirish**
Aniqlangan signal haqida ogohlantirish boshlanganidan 6 soniya o‘tgach, ovoz balandligi belgilangan foiz (%) miqdorida pasaytiriladi. Ogohlantirish tugaganidan 10 soniya o‘tgach, ovoz balandligi qayta tiklanadi.

**Multa**
Nexia 3, Cobalt va boshqa avtomobillarga o‘rnatilgan MultaRadar CD’ni signatura bo‘yicha aniqlashni yoqish yoki o‘chirish.

**Til**
O‘zbek va Rus tillari o‘rtasida tanlash.

**Sozlamalarni tiklash**
Barcha sozlamalarni zavod holatiga qaytarish

**GPS bazasi versiyasi**
O‘rnatilgan GPS bazasi versiyasining sanasini ko‘rsatish.

**PRO sozlamalari**
Ushbu funksiya yoqilganda qo‘shimcha sozlamalar bilan podmenyu ochiladi.

**ESLATMA**: PRO sozlamalariga o‘zgartirishlarni faqat tajribali foydalanuvchilarga kiritishni tavsiya etamiz

**Avto Turbo**
Belgilangan tezlikka yetilganda «Turbo» rejimini avtomatik yoqish.

**Signal**
Politsiya radarlar haqidagi tovushli (ovozli emas) ogohlantirishlarni yoqish yoki o‘chirish.

**GPS ovozsiz gacha**
Egar avtomobil tezligi belgilangan qiymatdan past bo‘lsa, GPS nuqtalari bo‘yicha tovushli va ovozli ogohlantirish berilmaydi. «GPS o‘chirilgan» qiymati tanlanganda, GPS nuqtalari haqidagi barcha ogohlantirishlar (shu jumladan displeydagi ko‘rsatmalar) o‘chiriladi.

**ESLATMA**: ushbu funksiya X-COP rejimi yoqilganida ishlamaydi.

**RD ovozsiz gacha**
Agar avtomobil tezligi belgilangan qiymatdan past bo‘lsa, radar modulidan kelayotgan signallar bo‘yicha tovushli ogohlantirish berilmaydi.

**Prioritet**

- **GPS** – ogohlantirishda ustuvorlik GPS bazasidagi nuqtalarga beriladi. GPS va radar moduli bir vaqtda ogohlantirganda, GPS ma’lumoti displeyda va ovoz bilan beriladi, radar signali esa faqat displeyda ko‘rsatiladi.
- **RD** – ogohlantirishda ustuvorlik radar moduliga beriladi. Radar moduli va GPS bir vaqtda ogohlantirganda, radar signali displeyda va ovoz bilan beriladi, GPS nuqtasi esa faqat displeyda ko‘rsatiladi.

**Ruxsat etilgan tezlikdan oshish chegarasi**
Belgilangan qiymat GPS bazasida ko‘rsatilgan ruxsat etilgan tezlik parametriga har bir kamera uchun qo‘shiladi. Ushbu funksiyada manfiy qiymat ham belgilash mumkin — bu holda tezlik oshirilishi haqida ogohlantirish real ruxsat etilgan tezlikdan oldinroq beriladi.

**Maksimal tezlik**
Agar avtomobil tezligi belgilangan qiymatdan yuqori bo‘lsa, tezlik oshirilgani haqida tovushli ogohlantirish beriladi.

**Tezlikni pasaytiring**
GPS nuqtasigacha ko‘rsatilgan metr masofada bir martalik «Tezlikni pasaytiring» ovozli ogohlantirish beriladi

**GPS masofasi**
GPS nuqtalari bo‘yicha ogohlantirish boshlanish masofasini o‘zingiz xohlagan qiymatda sozlang:

- **Baza** – GPS bazasidagi har bir kameraga ogohlantirish boshlanishi uchun metrda alohida qiymat biriktirilgan
- **Metrda** – 300 m dan 900 m gacha o‘rnatilgan qiymat bo‘yicha.
- **Tezlik bo‘yicha** – avtomobilning joriy tezligidan kelib chiqib.

| Avtomobil tezligi (km / soat) | 1 - 40 | 41 - 50 | 51 - 60 | 61 - 70 | 71 - 80 | 81 - 90 | 90 yoki undan ko‘p |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Ogohlantirish diapazoni (m) | 300 | 400 | 500 | 600 | 700 | 800 | 900 |

**Sukut zonasi radiusi**
Belgilangan radiusda keng chastota diapazonidagi kiruvchi signallar bo'yicha ogohlantirishlar berilmaydi.

**Xavfli zona radiusi**
E'tiboringizni talab qiladigan Xavfli zona radiusini sozlash masalan, ketma-ket yotqizilgan tezlik pasaytirgichlar, maktab, gavjum chorraha, mobil pistirma va boshqalar.

**Zonalarni o'chirish?**
Foydalanuvchi tomonidan o'rnatilgan barcha Xavfli zonalar va Sukut zonalarini o'chirish

**ESLATMA**: GPS bazasidagi radar va kameralar koordinatalari o'chirilmaydi.

**Yo'l-patrul xizmati postlari**
GPS bazasiga kiritilgan YPX postlari haqidagi ogohlantirishlarni yoqish yoki o'chirish

**Mulyajla**
GPS bazasiga kiritilgan radar va kamera mulyajlari haqidagi ogohlantirishlarni yoqish yoki o'chirish.

**Pistirmalar**
GPS bazasiga kiritilgan **ehtimoliy** politsiya mobil pistirmalari haqidagi ogohlantirishlarni yoqish yoki o'chirish

**Chorraha**
Chorrahalardan o'tishni nazorat qiluvchi kameralar haqidagi ogohlantirishlarni yoqish yoki o'chirish

**ESLATMA**: zamonaviy foto-fiksatsiya majmualari faqat qizil chiroqqa o'tishni yoki stop-chiziqdan o'tib ketishni qayd etish bilangina cheklanmay, balki boshqa YHQ buzilishlarini ham aniqlashga sozlangan bo'lishi mumkin (yo'l belgisi va yo'l chiziqlari talablarini buzish, yoritish moslamalaridan noto'g'ri foydalanish, tezlik rejimini buzish va boshqalar). Ushbu funksiyani faqat chorrahalarda barcha yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilgan taqdirdagina o'chirish mumkin.

**Hikvision S**
Statsionar «HIKVISION» radaridan signal qabul qilishni yoqish yoki o'chirish.

**Lochin**
Statsionar «LOCHIN KO'Z» radaridan signal qabul qilishni yoqish yoki o'chirish.

## Wi-Fi Hotspot yordamida proshivka va GPS bazasini yangilash

Mazkur qurilma to'plamiga kiritilgan Wi-Fi HOTSPOT yangilash bo'yicha yo'riqnomaga qarang.

## OTG USB yordamida proshivka va GPS bazasini yangilash

1) https://uz.neoline.com saytiga kiring va «Yangilash» bo'limini tanlang.
2) «Radar-detektorlar» kategoriyasini va modelingizni tanlang.
3) Ochilgan ro'yxatdan eng so'nggi GPS bazasini va proshivkani (agar kerak bo'lsa) yuklab oling.
4) Yuklab olingan barcha fayllarni istalgan arxivator dasturi yordamida arxivdan chiqaring
5) USB flesh-xotirani kompyuterga ulang va proshivka hamda GPS bazasi fayllarining barchasini unga ko'chiring.
6) USB flesh-xotirani radar-detektorga ulang.
7) Radar-detektorni yoqing — proshivkani avtomatik yangilash jarayoni boshlanadi.
8) Yangilash muvaffaqiyatli yakunlangach, qurilma standart ish rejimiga o'tadi va proshivka fayllari USB xotiradan avtomatik ravishda o'chiriladi.

## Texnik xususiyatlar

**Radar-detektor xususiyatlari**
Ultra-K diapazonlari
K diapazoni (23.900 – 24.250 GGts)
M diapazoni (23.900 – 24.250 GGts)

**GPS xususiyatlari**
GPS moduli: Quectel L76-LB
GPS antennasi: 25 × 25 mm Iliq start: < 1 daqiqa
Sovuq start: < 5 daqiqa

**Umumiy xususiyatlar**
Kirish kuchlanishi: DC 12 ~ 24 V
Tok iste'moli: 190 ~ 230 mA
O'lchamlari: 137 (uzunligi) × 80 (kengligi) × 32 (balandligi)
Ishlash harorati: –10 °C dan +60 °C gacha

## Ekspluatatsiya shartlari

1. Qurilmani foydalanuvchi qo'llanmasiga muvofiq tarzda to'g'ri o'rnating.
2. Faqat to'plamga kiruvchi quvvat kabelidan foydalaning. Uchunchi tomon quvvat kabelidan foydalanilganda qurilmaning ishlashi buzilishi mumkin.
3. Saqlash va foydalanish uchun belgilangan harorat sharoitlariga rioya qiling. Qurilmaning uzoq vaqt quyosh ostida qolishiga yo'l qo'ymang.
4. Avtomobildan chiqishdan oldin qurilma o'chirilganligiga ishonch hosil qiling. Qurilmani uzoq vaqt yoqilgan holatda qoldirmang, bu transport vositasi akkumulyatorining haddan tashqari zaryad sarflashiga va qurilmaning xizmat muddati qisqarishiga olib kelishi mumkin.

5. Qurilmaning tushib ketishiga yoki siqilishiga yo'l qo'ymang.
6. Yo'l-transport hodisalarining oldini olish uchun avtomobilni boshqarish vaqtida qurilma bilan hech qanday manipulyatsiyalarni amalga oshirmang.
7. Avtomobil salonini tozalash vaqtida qurilmaga tozalovchi vosita tegib ketmasligi uchun uni olib qo'ying, chunki bu tashqi ko'rinishining o'zgarishiga yoki ishlashining buzilishiga olib kelishi mumkin.
8. Qurilmani xavfsizlik yostiqchasi ochiladigan joyga o'rnatmang.

9. 12–24 V kuchlanishdan foydalaning.
10. Qurilmadan foydalanish vaqtida uni hech narsa yopmasligi yoki to'smasligi kerak.
11. Radar-detektor ko'rsatkichlari mumkin bo'lgan tashqi nurlanishlar sababli aniq bo'lmasligi mumkin. Kuchli nurlanish manbalari qurilmaning beqaror ishlashiga olib kelishi mumkin. Bunday nurlanish manbalariga, xususan, ammo ular bilan cheklanmagan holda, quyidagilar kirishi mumkin: avtomobildagi ko'r zonalar datchiklari, avtomatik surilma eshiklarning ochilish datchiklari, uyali aloqa tarmoqlarining bazaviy stansiyalari, avtomobil salonidagi nostandart elektron qurilmalar (jumladan, GPS modulli qurilmalar, radar-detektorlar, mobil telefonlar va boshqalar). Qurilma tomonidan begona nurlanish manbalarining aniqlanishi (ushlanishi) qurilma nosozligi hisoblanmaydi.
12. Radar-detektor faqat radio nurlanish manbalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. O'lchov qurilmalarining xususiyatlari va parametrlari o'zgarishi mumkinligi sababli, ishlab chiqaruvchi mavjud barcha radio signal manbalarining mutlaq aniqlanishini kafolatlay olmaydi.

13. Radar-detektor atermal old oynaga ega yoki isitiladigan oynali avtomobillarda noto'g'ri ishlashi mumkin. Chunki bunday old oynalar konstruksiyasida metall qoplama mavjud bo'lib, keng chastota diapazonidagi signallarni aniqlash va GPS modulining to'g'ri ishlashi buzilishi mumkin.
14. Avtomobil harakati vaqtida qurilma mahkamlagichi tebranishlarga uchraydi, bu radar-detektorning holatini o'zgartirib yuborishi mumkin. E'tiborli bo'ling va foydalanishdan oldin qurilmaning holatini tekshirib turing.
15. Sun'iy yo'ldoshlarni qidirish vaqti ob-havo sharoitlari, kun vaqti, hudud relyefi hamda avtomobilning konstruktiv xususiyatlariga qarab uzayishi mumkin.

DMZ turidagi elektron tizimlar, adaptiv kruiz-nazorat, frontal to'qnashuvdan ogohlantirish, avtomatik tormozlash va shunga o'xshash tizimlar ayrim holatlarda radar-detektor ishiga xalaqit berishi mumkin. Ishlab chiqaruvchi uning shovqinga chidamliligini oshirish maqsadida radar-detektor dasturiy ta'minotini doimiy ravishda takomillashtirib boradi.

Ishlab chiqaruvchi qurilmaning komplektatsiyasi, texnik va dasturiy ta'minotiga oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi

Ishlab chiqaruvchi radar-detektorlar faoliyatini tartibga soluvchi barcha qonun va qoidalarga rioya etishni tavsiya qiladi hamda uskunadan huquqiy me'yorlarga zid ravishda foydalanish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi

Qurilma noto'g'ri ishlagan taqdirda, servis markaziga, sotuvchiga yoki vakolatli tashkilotga murojaat qilishdan oldin, qurilmaning dasturiy ta'minotini (proshivkasini) mustaqil ravishda yangilash zarur. Dasturiy ta'minotning eng so'nggi versiyasini Internet tarmog'idan quyidagi manzil orqali yuklab olish mumkin: https://uz.neoline.com

Yangilash bo'yicha ko'rsatmalarni yuqorida ko'rsatilgan manzildan olish mumkin.
Dasturiy ta'minotni yangilash jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, kompaniya saytida ko'rsatilgan telefon raqamlari orqali qo'llab-quvvatlash xizmati bilan bog'lanish zarur.

"Internet" tarmog'idagi manzil: https://uz.neoline.com/update

Ishlab chiqaruvchi:
Jejay Korp
Dain Plazma 2F 203/204, 742-3, Choji-dong
Danvon-Gu, Ansan-si, Gyeonggi-do, Koreya Respublikasi

Koreyada ishlab chiqarilgan

Xizmat muddati: 24 oy
Kafolat muddati: 24 oy
Ishlab chiqarilgan sana: qurilma ustidagi individual stikerda aniq ko'rsatilgan.
Shifrlangan ko'rinishda u seriya raqamida ko'rsatilgan (ishlab chiqarilgan oy va yil «K» harfidan oldingi 4 ta belgida ifodalangan).

Mahsulotning iste'mol xususiyatlarini oshirish maqsadida, ishlab chiqaruvchi mahsulotning dasturiy ta'minotiga (shuningdek, yangi qurilmalarning element bazasiga) texnik takomillashtirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Buning natijasida qurilma ishlash algoritmlarida o'zgarishlar bo'lishi mumkin, biroq bu mahsulotning dastlabki xususiyatlarining yomonlashishiga olib kelmaydi. Qurilma ishlashidagi yangilanishlar va dasturiy ta'minotning yangi relizlari haqidagi ma'lumotlar Internet tarmog'idagi axborot resursida quyidagi manzil bo'yicha mavjud bo'ladi: https://info.neoline.com/uz

EAC CE FC RoHS

8 809101 007800

**Neoline radar-detektori**
**Model: X-COP 7800s Wi-Fi Black**